

KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUV.

Kogon tuman kasb-hunar maktabi direktori U.J.Toshev

Kogon tuman kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi J.Abdusamadov

O'zbekiston deb atalmish diyorning har bir a'zosi tinch va farovon hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratish yo'lida yoshlarimizning kasb-hunarga qiziqishini ortirish, o'zi qiziqgan kasb-hunarining ustasi bo'lib yetishishi uchun ona diyorumizda barcha sharoitlar yaratilgan. Jonajon O'zbekistonimizning kelajagi yoshlar qo'lidadir. Yoshlar kelajagimiz vakillari, kelajagimiz yaratuvchilari hisoblanadi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlod xalqimiz, millatimiz davomchilari bo'lishi bilan birga Vatanimizning eng katta tayanchidir. Hayotimizning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ta'lim va tarbiyada ham ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2016-yil 16-oktabrdagi PF-158 farmoni asosida kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish bo'yicha 2025-yil 1-yanvardan boshlab kasb-hunar maktablari texnikumlarga aylantiriladi. Kasb-hunar maktablaridan farqli o'laroq texnikumlarda umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lganlar uchun to'lov-kontrakt, 9-sinf o'quvchilari uchun davlat granti asosida o'qish jarayonlari olib boriladi. O'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlarining bitiruvchilariga o'zlashtirgan modular, to'plagan kreditlari va oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o'rtacha qiymatidan kelib chiqib, bakalavriatning tegishli bosqichidan o'qishni davom ettirishga ruxsat beriladi. Mahalliy va xorijiy ish beruvchilar bilan to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etishga va bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan turli yoshdagi fuqarolar va ishsizlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil qilinadi. Bunda aholining kasb-hunar bo'yicha o'qish imkoniyatlari oshadi va ularning kelajakda o'zlari egallagan kasb-hunar bo'yicha ishlashlari uchun zamin yaratiladi. Bundan tashqari dual ta'lim shaklida o'quvchilarni qabul qilish ish beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladi. An'anaviy ta'lim shaklida o'quvchi/talaba oliy yoki professional ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxonada va tashkilotlarda o'taydi. Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxonada, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lim shakli O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritildi. Dual ta'lim – o'quvchi/talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxonada va tashkilotlarda haqiqiy

ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi/talaba korxonada va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxonada tomonidan ustoz birlashtiriladi va oylik maoshi to'lanadi. Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ringa ega. 2022-2023-o'quv yilida professional ta'lim muassasalariga 4,5 mingdan ortiq yoshlar dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilindi hamda yuqorida aytib o'tilgan sohalarga qo'shimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ham dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, 7,5 mingdan ortiq yoshlar respublikamizdagi professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklida ta'lim olib, 1,5 mingga yaqin korxonada va tashkilotlarda ish faoliyatini olib bormoqda.

Kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilariga davlat namunasidagi hujjatlarni berishning yagona tartibi joriy etiladi, Bunda kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirgan shaxslarga-diplomlar, qisqa muddatli kurslar bitiruvchilariga o'qigan modullariga qarab tegishli kompetensiyani egallaganlik to'g'risida sertifikatlar beriladi. Xalqaro ta'lim dasturlari asosida ta'lim olgan va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchilarga xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha diplom hamda kasbiy ta'lim to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi.

Xuddi shu tartibda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi, Buxoro viloyat Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi tarkibida Kogon tuman kasb-hunar maktabi, 2025-yil 1-yanvardan boshlab, Prezidentimiz farmoni asosida Kogon tuman politexnikumiga aylantiriladi. Yuqorida qayd etilganidek, o'quvchi-talabalarga ko'pgina imkoniyatlar yaratiladi. Barcha o'quvchi yoshlarni va umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lganlarni Kogon tuman politexnikumiga o'qishga taklif qilib qolamiz. Zorro, imkoniyatdan foydalanib kelajaginhgiz uchun zamin yarating aziz yoshlar.